
TOSHLOQLIKLAR UMUMXALQ HASHARIDA FAOL QATNASHMOQDA

Bugun yurtimizda Navro'z umumxalq bayramini munosib nishonlash hamda Ramazon oyini qarshi olishga tayyorgarlik ko'rish maqsadida «Obod va fayzli mahalla — yurt ko'rki» shiori ostida umumxalq hashari bo'lib o'tmoqda.

Umumxalq hasharida toshloqliklar ham faol ishtirok etib, o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Umumxalq xayriya hasharida mahallalar, aholi turar joylari, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar, bolalar maydonchalari va boshqa joylarni obodonlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'cha va maydonlar, turar-joylar, ijtimoiy ob'yektlarning yon-atroflari yanada orasta holatga keltirilmoqda.

2023-03-18 16:09:04